

K.SMAMUTOVNING «SIZLARGA AYTIB KETMOQCHIMAN...» ROMAN-ESSESINING KOMPOZITSIYASI

*Matekov Amangeldi Daryabayevich,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog'iston
gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti*

Annotatsiya. Qoraqalpoq nasrida dastlabki roman-esse XX asrning 80-yillari yaratildi. Mustaqillik davrida roman-esse qoraqalpoq romanining alohida janri sifatida shakllandi va rivojlandi. Maqolada qoraqalpoq roman-esse janri rivojlanishida o'z o'rniga ega yozuvchi K.Smamutovning «Sizlarga aytib ketmoqchiman...» asarining kompozitsion qurilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yozuvchi, nasr, roman, esse, roman-esse, kompozitsiya

КОМПОЗИЦИЯ РОМАНА-ЭССЕ «ХОЧУ ТЕБЕ СКАЗАТЬ...» К.СМАМУТОВА

*Матеков Амангельди Дарьябаевич,
Каракалпакский научно-исследовательский институт гуманитарных наук Каракалпак-
ское отделение Академии наук Республики Узбекистан*

Аннотация. Первый роман-эссе в каракалпакской прозе был создан в 80-х годах 20 века. В период независимости роман-эссе сформировался и получил развитие как отдельный жанр каракалпакского романа. В статье анализируется композиционное построение произведения писателя К. Смамутова «Хочу вам сказать..», которое имеет свое место в развитии жанра каракалпакского романа-эссе.

Ключевые слова: писатель, проза, роман, эссе, роман-эссе, композиция.

COMPOSITION OF THE NOVEL-ESSAY «I WANT TO TELL YOU...» K.SMAMUTOV

*Matekov Amangeldi Daryabaevich,
Karakalpak Research Institute for the Humanities Karakalpak branch of the Academy of
Sciences of the Republic of Uzbekistan*

Annotation. The first novel-essay in Karakalpak prose was created in the 80s of the 20th century. In the period of independence, the novel-essay was formed and developed as a separate genre of the Karakalpak novel. The article analyzes the compositional construction of the work of the writer K. Smamutov, «I want to tell you..», which has its place in the development of the Karakalpak novel-essay genre.

Key words: writer, prose, novel, essay, novel-essay, composition.

XX asrning 80-yillarida ijtimoiy-madaniy hayotining o'zgarishi, siyosiy turmushdagi burilishlar, qayta qurishning boshlanishi adabiy jarayonga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Dastlab she'riyatda publitsistik ruh kuchaydi. Nasrda inson va jamiyat aro munosabatlarni tasvirlashda yangicha epkin yuzaga keldi. Asarlarda qahramonlarning ijtimoiy tuzum haqida tanqidiy qarashlari berila boshlandi. Yozuvchilarning roman va qissalari matniga boshqa badiiy va publitsistik janrlar, ilmiy va tarixiy manbaalar kiritildi. Mana shu singari badiiy asar poetikasidagi tafovutlar adabiy janrlar ichida romanda keng foydalanildi. Romanda yozuvchining subyektiv qarashlarining berilishi, bayon qilishdagi subyektivlik bu janr tarkibida esse janrining elementlari kirib kelganligini bildiradi. Ushbu sintezlanish natijasida roman-esse atamasi yuzaga keladi. Qoraqalpoq nasrida bu janrni boshlab bergan va uni rivojlantirgan T.Qayipbergenov bo'ldi. Uning «Qoraqalpoqnoma» roman-essesi [1] badiiy adabiyotdagi birnecha janrlarning sintezidan paydo bo'lgan. Bu janr 1980-yillarning o'rtalarida paydo bo'lgan bo'lsa, XX asrning 90-yillarida ancha yuqori darajada rivojlandi. Yozuvchining «Qalbimning qomusi», «Turkiynoma» esselari bor. Bu janrni 2000-yillarda K.Smamutov, Sh.Usnatdinov, M.Nizanovlar davom ettirishgan.

Bu janrning rivojlanishida o'z o'rniga ega yozuvchi K.Smamutov nasrning boshqa janrlarida ham qalam tebratib, mahoratga erishgan yozuvchi hisoblanadi. Jumladan, «Yodimga tushdi...», «Qiz opamga» esselarini aynan u yozgan. Shuningdek, esse janrining tabiatini ijodda anglab yetgan va «Sizlarga aytib ketmoqchiman» roman-essesini yozgan.

Қорақалпоқ адабиётшунослигида эссе жанри табиати Б.Палвонов тадқиқотларида ўрганилди [2]. Қозоқ адабиётшунослигида Н.Болтабаева [3], ўзбек адабиётшунослигида И.Яку-

бов [4] тадқиқотларида роман-эссе жанри назарий хусусиятлар ўрганилди. К. Smamutovning “Sizlarga aytib ketmoqchiman...” roman-essesida III. Babashov [5] M. Bayetdinov [6] maqollari ezilgan.

Yozuvchi K. Smamutovning “Sizlarga aytib ketmoqchiman...” roman-essesida qatag’onga uchragan bir oila hayotiga oid voqealar bayon qilinadi. Roman-esse atamasining o’zi ham publitsistik sifatga ega. Asarda muallif pozitsiyasi ochiq ko’rinadi.

Roman-essening kompozitsiyasiga muallifning lirik chekinishi va “Halokatli oqibat”, «Mo’g’ulcha usul», «Bugari qora kurtka», «Hasratli davrlar», “Baliq boshidan chirydi” nomli besh bo’limdan iborat voqealari kiritilgan.

Roman-essening kirish qismida ancha yoshga borib qolgan yozuvchi inson umrining o’tkinchiligi, baxti, asarda tasvirlangan voqealar va qahramonlar haqida so’z etadi.

Roman-essega kiritilgan har bir bo’lim o’z atamasiga mos voqealarni qamrab olgan va o’z ichki kompozitsiyaga ega. Bu bo’limdagi voqealar roman janri tabiatiga ko’ra alohida bir syujet liniyasi bo’lib, unda yozuvchining o’zi turmushda ko’rgan, boshidan kechirgan voqealar, otasidan va boshqa odamlardan eshitgan voqealari bayon qilingan. Bu voqealar har xil vaqtda yuz bersa ham, yozuvchi ularni birlashtiruvchi personajga aylanadi va bu bo’limning kompozitsion butunligi saqlangan. «Halokatli oqibat» bo’limida esse janriga xos xususiyatlar ham bor. Bular muallifning voqealarni subyektiv bayon qilishida ko’rinadi. Muallif o’zi lozim deb topgan o’rinlarda «Halokatli oqibat», shuningdek xalq tilidagi ayrim siyosiy ma’noga ega «qora ruis», «qora araba», «orman kesish» so’zlariga ta’rif beradi. Roman matni «boshqa matn»larga ochiq, shuning uchun muallif janr imkoniyatlaridan foydalanib, bu bo’limda shoir I. Yusupovning

Hamel barda orin beredi to’rden,
Birin-biri xoshametlep tagadi o’rden,
Tiri waqta jerge –jamga tiygizbey,
O’lgensong shigarip taslaydi go’rden.

she’rini kiritib, Kengash hukumati rahbarlariga xos «tobutlarni tebratish» illatini oshkor qiladi.

Roman-essening “Mo’g’ulcha usul” deb nomlangan bo’limida muallif ancha tarixiy o’tmishga ketib, otasi Nasrullaning taqdirini bayon qiladi. Bu voqeani yozuvchi quyidagicha tasvirlaydi: «Men otamning Toqimbet bo’lis degan kimsaning boshchiligida o’ldirilganligini eski kekka chollaridan eshitganman. Otam esa yuragiga tuganmas yara solib ketgan ushbu voqea haqida aytishni hush ko’rmas edi. «Esimga tushsa yuragim uzilib ketayotganday bo’ladi» deydi. Shundan keyin surishtirib so’rayverishga botina olmas edim». [7, 23]. Muallif bundan keyin Chimboyning atoqli o’g’rilar bilan Nasrulla orasida bo’lib o’tgan kelishmovchilik, Turman Dilmash bilan Chimboy o’g’rilarining kelishimi, Nasrullaning o’g’lining boshiga tushgan musibat, Nasrullaning o’ldirilishi, Chimboy o’g’rilarining turkman Ko’klan bilan til biriktirib Chimboy bozorini talash voqealarini bayon qiladi. Bu bo’limda qahramon obrazlarining portret tasvirlanishi ham mohirlik bilan berilgan. Muallif o’g’rilarining portretini tasvirlashda obyektiv munosabat yasaydi. Ularning bor ekanligiga salbiylik xususiyatini bermaydi. Masalan:

«Turman dilmashning dasturxonida atrofiga o’tirganlarning ichida tashqi bichimi qaroqchiga o’xshaydigani faqat Buyra. Bu kishini boshqalardan farqlantirib turadigan ikki xil o’zgachalik bor. Birinchisi bo’yi odamlarning bo’yiga o’xshab uzunasiga emas, eniga o’sib ketgan, juda yo’g’on, uncha-muncha eshikka sig’maydi, uyning eshigidan ko’pincha yonlamasiga kiradi. Oyoqlari kalta, qalin tuk bosib ketgan qo’llari orangutanning qo’llari kabi uzun va o’ng’aysiz. Maxsus buyurtma bilan tiktirib kiygan kiyimlari kiyimdan ko’ra kanop qopga o’xshab turadi. Mudomi chipqon chiqib yuradigan yo’g’on bo’yni beshikda ko’p yotgan go’dakning dumbasidek qip-qizil bo’lib ketgan, bet-alfozining peshonasidan boshqa yerining hamma qismini jingalak jun bosib ketgan.

Buyranning ikkinchi o’zgachaligi joni qiynalmasa gapirmasligi. Shunga qarab ba’zi kimsalar uni Xudodan tilagan musofir odam ekan deb qolishi mumkin» [7, 33].

Nasrulla biyning portretini tasvirlashda esa muallifning simpatiyasi ko’rinadi. Shuningdek, tarixiy shaxs Xolmurod boyning ham obrazi ijobiy sifatlar bilan chizilgan. Ayniqsa, bu obraz yaratishda muallif xalq orasidagi afsonaga aylangan gaplardan foydalanadi. Masalan, Xolmurod boy, Askar boy, Shiniqul boyning bor boyligini bellashtirib, o’tin o’rniga pulni yoqib, o’tga qo’yilgan qumg’onni qaynatish voqeasini kiritgan. Xolmurod boyning bo’lib o’tgan voqealar rivojini o’ylab topishi ham qiziqarli bayon qilingan. Odam o’ldirishdagi «Mo’g’ulcha usul»ni ham Xolmurod boy tushuntirib beradi.

«Bugari qora kurtka» deb nomlangan uchinchi bo'limi o'zining hajmi bilan ajralib turadi. Bu bo'limda xirurg Svyatoslav Fedorov, kolxoz raisi Bekboy O'teniyazov, o'zbekning mashhur kinooperatori Malik Qayumov, Tajimurod aravakash bilan Xojaniyoz etikchi, bog'bon Saparboy Avezimbetov, maktab direktori Allamjar og'a, muallifning bola paytidagi do'stlari Nuran bilan Qong'iratboy, Reyipnazar militsiya, Joliboy, professor Temirbek Bekeev, agronom Vladimir Michurin, atoqli qo'shiqshi Galina Vishnevskaya, usta Aznali Muhammetshin, Srajatdin Xudaybergenov, Dosali, Toliboy va Ayimgul, artistlar Toqta Raxmanova, Haliyma Nasirova, Yaqip bir quloq, Yuldash Axunbabaev, Nizan ko'kko'z Qudayqulov, O'razboy usta, baxshi Saqiy Jabborov, Tileumurat va Ajiniyoz, Nikolay Marr, Qorajon botirlar va ularga bog'liq voqealar bayon etiladi. Bu odamlarning hammasi ham o'tmishda bor, ko'pchiligi muallif bilan bir zamonda yashagan.

Roman-essening «Hasratli davrlar» deb nomlangan to'rtinchi bo'limida qalmoqlarga keng turda izoh berilib, bo'lim ularning qoraqalpoqlar bilan qozoqlarga qilgan bosqinchiliklaridan boshlanadi. Bu bo'limda muallif tarixiylik prinsipiga asoslanib, faktlarni, shaxs nomlarini, tarixiy shaxslarni keltirib o'tadi. Qalmoqlarning xoni Tsevan-Rabdanga izoh berilib, qoraqalpoqlarga qanday xavf tug'dirgani haqida ma'lumotlar, voqealar keltirib bayon qilinadi. Hatto xalq ichida qalmoqlarga sotilib yurgan shaxslarning ismlari ham nomma-nom keltiriladi.

Muallif voqealarni qayta bayon qilishdan o'zini tiyib, odamlar haqidagi fikrlarini o'zgartirgan uch voqeani aytib o'tadi.

Birinchi voqeada mashhur chekist Begjon Babajanovning «Umrnoma» asari haqida, ikkinchisi Mixail Sholoxov bilan muallifning uchrashuvi, uchinchi voqeada muallifning «Temirchining bolasi» deb nomlangan ocherkining nashr qilinishi haqida aytiladi.

Roman-essening beshinchi bo'limiga «Baliq boshidan chirydi» degan xalq maqoli nom qilib olingan. Bo'limni o'qish davomida bu maqolning ma'nosi hayotiy voqealar bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Bu bo'limda muallif akasi, mashhur jamoat faoli Hakim Nasrullaevning qatag'onga uchrashi haqida so'z etadi.

Roman-esseda epilog o'rniga kiritilgan Berdaqning «Bo'lgan emas» she'rining ikki misrasi bilan yakunlanadi.

K.Smamutovning «Sizlarga aytib ketmoqchiman...» roman-essesining kompozitsiyasi romanga xos belgilarni va esse janriga oid bayon qilishlarni o'z ichiga qamrashi bilan ko'lamli, o'ziga xos obraz sistemasi va syujet tuzilishiga ega asardir.

Адабиётлар:

1. Қайыпберганов Т. Қарақалпақнама. Роман-эссе. –Нөкис: «Қарақалпақстан», 1986.
2. Палўанов Б. Палўанов Б. Ҳазирги қарақалпақ әдебиятында эссе жанры (жанрдың пайда болыуы хәм қәлиплесиуи, шеберлик мәселелери). Канд. дисс. Нөкис, 2007.
3. Балтабаева Н.С. Қазақ роман-эссе жанрының қалыптасу тарихы, оны оқытудың даралық-дәстүрлик ұстанымдары. Диссер. фил. PhD. – Алматы, 2016. 148 бет.
4. Якубов И. Мустақиллик дәври ўзбек романлари поэтикаси. Филология фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси. Тошкент, 2018.
5. Бабашев Ш. Тарийхый шахслардың өмир тарийхы бурмаланбасын. // Еркин Қарақалпақстан, 2012. №47.
6. Bawetdinov M.K. Jaziwshı SH.Usnatdinovtıń -Ibrayım Yusupov roman-essesiniń janrlıq ózgesheligi haqqında. магистрантлардың илимий мийнетлериниң топламы. Нөкис, 2021, 232-233 бетлер; Баўетдинпв М. Ҳазирги роман-эсселердиң жанрлық өзгешеликлери. // «Янги Ўзбекистонни қуриш ва ривожланишида ёшларнинг фаоллиги» IV онлайн конференция. Наманган давлат университети, 2020, 46-47 бетлер.
7. Смамутов К. Сизлерге айтып кетежақпан... Роман-эссе. –Нөкис, 2017.